Pardayeva Sevara Abdunosir qizi

DTPI Pedagogika fakulteti Pedagogika yònalishi

8-P-2022-guruh 1-bosqich talabasi

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM PARADIGMALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim paradigmalari va uning mazmun mohiyati haqida ma’lumotlar aks etgan.

Kalit sòzlar: Paradigma, fenomenologik, texnokratik, izoterik, an'anaviy, bixevioristik, insonparvarlik, tizim, kommunikatsiya, aksiologiya, tamoyil, bilim, pedagog.

Kirish. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning inteIlektuaI ehtiyojlari, «erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash» masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta'lim muassasalarida quyidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar . Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir»[1].degan fikrlarni birinchi Prezidentimiz Islom Abduǧaniyevich Karimov ilgari surganlar. Haqiqatdan ham bollalarni mustaqil fikrlashga òrgatish, har bir bolalarni fikrlarini hurmat qilish kerak. Garchi bolalar notòǧiri fikrlarni bildirayotgan bòlsa ham avval aytayotgan fikrlariga quloq solib sòngra bayon etilgan fikr yuzasidan qolgan bolalar bilan birgalikda muhokama qilib tushuntirishi kerak. Agar bolaga qòpol muomala qilinsa u bolakay yana fikr bildirishga qòrqib qoladi. Yoki bòlmasa toǧri fikrlarni ham bu fikrim ham notòǧri bòlsa dakki eshitaman deb aytmasligi mumkin Natijada bola òz fikrlarini bayon etmaydi va unda kundan kunga fikrlash darajasi ham sustlashib boraveradi. shuning uchun ham pedagoglar bolalar bilan ishlashda ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi kerak. Bu qilayotgan muomala

madaniyati bolalarning ichki dunyosiga salbiy yoki ijobiy tasir etishiga kòra ulani hayotini ham yo yaxshilikga yoki yomonlik sari olib borishi mumkin.

Òzbekiston Respublikasining "Ta'lim tòğrisida"gi qonunning 46-moddasida ham Pedagog xodimlarning majburiyatlari belgilab qòyilgan bunga kòra: Ta'lim tarbiya jarayoni ishtirokchilarining shani qadr qimmati hurmat qilishi, ta'lim jarayonida axborot kammunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning psixologik va òziga xos xususiyatlarini hisobga olish nuqsoni borlarni òqitish uchun shart sharoitlar yaratish[2] kerakligi gaqida aytib òtilgan. Shunga amal qilinsagina ta'lim samaradirligi yanada yuqori bòladi.

Asosiy qism. .Paradigma - aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikkamuammolami aniqlash va ulami hal etish modeli sifatida taqdimetiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarinihal etish namunasi sifatida qaraladi. Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) - pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

◆ An'anaviy - konservativ paradigma (bilim paradigmasi). .

◆Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.

◆Fenomenologik (gumanistik) paradigma.

◆ Texnokratik paradigma.

◆Ezoterik paradigma.[3]

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

I. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi. Har bir paradigma muayyan ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

⟫ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;

⟫ ta'limning samarali tizimi;

⟫o'quv yurtlari old ida turgan eng muhim, ustuvor masala;

⟫ ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;

⟫muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

An’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmada tailimning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun taiim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko‘proq mavjud unsurlari - ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko‘nikma va malakalar, bundantashqari ideal va qadriyatlami uzatish va saqlashda namoyonbo‘ladi. Shuning uchun o‘quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalami egailash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta’minlashga asoslanadi[4]. Har qanday sharoitda ham bilimni birinchi òringa qòyish kerak. Qachonki insonlar bilimli bòlsagina yurtda rivojlanish òsish sur'atlari yuz beradi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an’anaviy paradigmaga qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmunni emas, o'quvchilaming turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi.

Ratsionalistik ta’lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta’lim muassasasining maqsadi — ta’lim oluvchilarda ijtimoiy me’yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi «barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar - uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati»ni bildiradi.Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilaming maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya’ni har qanday ta’lim muassasasi - bu yashash muhitiga moslashtirishning ta’limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korrektsiyalash kiradi[5].

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot subyekti, shaxs erkinligi va ma’naviyati sifatidagi ta’lim oluvchi

turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta’limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ulrni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya’ni ta’lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e’tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta’lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta’lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlikparadigmasi ham 0‘qituvchi, ham o‘quvchilaming erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- taiimning ijtimoiylashuvi

- o‘qituvchilami tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta’minlash, o‘qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor boiish;

- tailim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g‘oyalariga asoslanish;

- shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda mustaqil taiim olishga boigan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o‘qituvchilaming kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o‘qituvchi hamda o‘quvchilaming o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish

;- taiim jarayonida o‘quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy Takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim - kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o‘rtacha. namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi.

Texnokratik paradigma sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha - yo‘q», «biladi - bilmaydi», «tarbiyali -tarbiyasiz», «egallagan - egallamagan»

tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo‘ladi

.Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta’limiy paradigmalardan biri. Mazkur so‘zning yunonchadan so‘zma-so‘z tarjimasi «sirli», «yashirin» ma’nolarini bildiradi. Uning mohij'atini abadiy va o‘zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin[6]. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o‘quvchining tabiiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo‘lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta’lim oluvchilaming axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

Xulosa. Ta’limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari - har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e’tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e’tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ulami amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlami o‘matish jarayonida sodir boiadi.Asosida ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalaming rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta’limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning

reflektiv imkoniyatiarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Òzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamisi ÒRQ-637-son "Ta'lim tòg‘risida"gi Qonuni T:2020 yil 23 sentabr

3. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.- T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil

4. A.Musurmanova, X.Ibragimov, O.Jamoldinova, K.Risqulova, S.Yo‘Idosheva,A.Jiimaycv, F.Babashev, P.Isamova, S.Sharipova, G‘.Salohiddinova, K.Todjibayeva Umumiy pedagogika T:òz kitobsavdo" 2020

5. M.X.Toxtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M. Usmonboyeva, S.Madiyarova, A.Qoldibekova. N. Nishonova, N.Sayidahmedov. Toshkent: «O'zbekiston faylasliflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.

WORDLY KNOWLEDGE